

X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 10 999,7 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2022- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 2 947,2 mlrd. so'mga yoki 21,1 %ga kamaygan.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar

| | <i>Foyda, zarar (-), mlrd. so'm</i> | <i>2022- yil yanvar-noyabriga nisbatan %da</i> |
|--|---|--|
| Jami | 10 999,7 | 78,9 |
| Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishslash | 26,4 | - |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 11 031,4 | 79,2 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | -320,5 | - |
| Qurilish | 47,1 | 3,1 m. |
| Savdo | 179,7 | 95,1 |
| Tashish va saqlash | 20,1 | 160,9 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 11,5 | 166,7 |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 16,8 | 127,6 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | -3,2 | - |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | -7,3 | - |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 33,9 | 176,1 |
| Boshqalar | -36,3 | - |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (11 031,4 mlrd. so'm), savdo (179,7 mlrd. so'm), qurilish (47,1 mlrd. so'm) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (33,9 mlrd. so'm) sohasidagi korxonalarga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (9 736,0 mlrd. so‘m), “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatasi (99,2 mlrd. so‘m), “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatasi (48,3 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

**2023- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida
yakuniy moliyaviy natijalar**

| | <i>Foya, zarar (-), mlrd. so‘m</i> | <i>2022- yil yanvar-noyabriga nisbatan %da</i> |
|--------------------------|--|--|
| Viloyat bo‘yicha: | 10 999,7 | 78,9 |
| <i>shaharlar:</i> | | |
| Nurafshon | -122,9 | |
| Olmaliq | 9 523,8 | 85,4 |
| Angren | -484,7 | |
| Ohangaron | 61,3 | 15,6 |
| Bekobod | 657,3 | 73,0 |
| Chirchiq | 707,2 | 71,6 |
| Yangiyo‘l | 29,8 | 65,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oqqo‘rg‘on | 27,6 | 1,9 m. |
| Ohangaron | -171,4 | |
| Bekobod | 1,5 | |
| Bo‘stonliq | -0,6 | |
| Bo‘ka | -20,1 | |
| Quyi Chirchiq | -3,0 | |
| Zangiota | 105,0 | 108,7 |
| Yuqori Chirchiq | 14,7 | 58,7 |
| Qibray | 328,6 | 105,4 |
| Parkent | 24,4 | 2,5 m. |
| Piskent | 7,5 | 142,1 |
| O‘rta Chirchiq | 7,3 | 147,8 |
| Chinoz | 14,1 | 9,7 m. |
| Yangiyo‘l | 108,5 | 110,5 |
| Toshkent | 183,9 | 119,9 |

**Korxona va tashkilotlarning
molivaviy natijalari**

Foydaning pasayishi "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatiga tarkibiga kiruvchi korxonalarda (-777,8 mlrd. so'm), O'zbekiston elekrotexnika sanoati korxonalari uyushmasida (-121,6 mlrd. so'm), O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasida (-107,8 mlrd. so'm) kuzatilgan.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar – 9 524,7 mlrd. so'm (jami foydaning 76,4 %), Chirchiq shahar – 765,3 mlrd. so'm (6,1 %), Bekobod shahar – 657,3 mlrd. so'm (5,3 %) va Qibray tumani – 501,9 mlrd. so'm (4,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.


Zararlar. 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 72 ta korxona va tashkilotlar 1472,7 mlrd. so'm zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatasi – 298,3 mlrd. so'm (jami zararning 20,3 %), “O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatasi – 232,0 mlrd. so'm (15,8 %), O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi – 92,9 mlrd. so'm (6,3 %) va O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 25,8 mlrd. so'm (1,7 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida zarar ko'rgan korxona

va tashkilotlarning moliyaviy natijalari


(jamiga nisbatan %da)



Korxona va tashkilotlarning molivaviy natijalari

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | <i>Korxonalar soni</i> | <i>Zarar summasi</i> | |
|--|----------------------------|----------------------|------------------------------------|
| | | <i>mln. so'm</i> | <i>jamiga nisbatan %da</i> |
| Jami | 72 | 1 472 707,3 | 100,0 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 35 | 485 547,3 | 33,0 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash | 7 | 681 344,5 | 46,3 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash | 8 | 144 135,9 | 9,8 |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish | 2 | 803,3 | 0,1 |
| Tashish va saqlash | 1 | 2 985,4 | 0,2 |
| Ta'lim | 7 | 3 927,7 | 0,3 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 1 | 130 464,8 | 8,9 |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 3 | 7 699,1 | 0,5 |
| Boshqalar | 8 | 15799,3 | 1,1 |



**Korxona va tashkilotlarning
moliyaviy natijalari**

**2023- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar
ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

Zararning asosiy qismi, ya'ni 681 344,5 mln. so'mi (46,3 %) elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hamda 485 547,3 mln. so'mi (33,0 %) ishlab chiqaradigan sanoat sohalariga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

| | <i>Korxonalar soni</i> | <i>Zarar ko'rgan korxonalarining ulushi, %da</i> | <i>Zarar summasi, mln. so'm</i> |
|--------------------------|----------------------------|--|---|
| Toshkent viloyati | 72 | 100,0 | 1 472 707,3 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 2 | 2,8 | 132 624,2 |
| Olmaliq | 3 | 4,2 | 876,2 |
| Angren | 12 | 16,7 | 603 714,2 |
| Ohangaron | 6 | 8,3 | 90 664,1 |
| Bekobod | 1 | 1,4 | 23,0 |
| Chirchiq | 7 | 9,7 | 58 062,6 |
| Yangiyo'l | 4 | 5,6 | 11 801,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 2 | 2,8 | 1 242,0 |
| Ohangaron | 2 | 2,8 | 183 509,4 |
| Bo'stonliq tumani | - | - | - |
| Quyi Chirchiq tumani | 4 | 5,6 | 145 795,9 |
| Zangiota tumani | 1 | 1,4 | 20 094,2 |
| Yuqori Chirchiq tumani | 1 | 1,4 | 2 985,4 |
| Qibray tumani | 2 | 2,8 | 177,8 |
| Pskent tumani | 4 | 5,6 | 14 037,8 |
| O'rta Chirchiq tumani | 7 | 9,7 | 173 356,8 |
| Chinoz tumani | 2 | 2,8 | 306,9 |
| Yangiyo'l tumani | 2 | 2,8 | 19 832,9 |
| Toshkent tumani | 2 | 2,8 | 1 739,2 |

**Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik
qarzdorligi holati¹⁾**

2023- yil 1- dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 28 576,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani 299,9 mlrd. so‘mni yoki jami qarzdorlikning 1,05 %ini tashkil etdi.

Jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 124,7 %ga ko‘paydi, muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2022- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 20,0 %ga kamaydi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko‘rsatkich Olmaliq shahar – 13 065,6 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 45,7 %i), Bekobod shahar – 3 197,0 mlrd. so‘m (11,2 %), Chirchiq shahar – 2 387,1 mlrd. so‘m (8,4 %) va Qibray tumani – 2 250,9 mlrd. so‘m (7,9 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2023- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan
debitor qarzdorlikning tarkibi**

| | <i>Jami, mlrd. so‘m</i> | <i>undan:</i> | | | <i>Ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik</i> |
|--|---------------------------------|--|--|---------------------------------|--|
| | | <i>xaridor va buyurt- machilar</i> | <i>yetkazib beruvchi va pudratchi- larga berilgan avanslar</i> | <i>ichki idora- viy</i> | |
| Jami | 299,9 | 260,3 | 22,9 | 9,8 | 290,1 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 111,3 | 88,9 | 21,6 | - | 111,3 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni kondisiyalash | 93,8 | 91,5 | 0,8 | - | 93,8 |
| Qurilish | 0,4 | - | - | 0,4 | - |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash | 0,1 | - | 0,1 | - | 0,1 |
| Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar | 1,1 | 0,2 | - | - | 1,1 |
| Boshqalar | 206,6 | 180,6 | 22,5 | 0,4 | 206,2 |

¹⁾Budget va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2023- yil 1- dekabr holatiga jami debitor qarzdorligi 17 679,1 mld. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 61,9 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 75,0 mld. so‘mni yoki mos ravishda 25,0 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi – 16 273,3 mld. so‘m (92,0 %), “O‘zkimyosanoat” AJ – 551,5 mld. so‘m (3,1 %), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 476,1 mld. so‘m (2,7 %), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi – 217,6 mld. so‘m (1,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining debitor qarzdorlikdagi eng ko‘p o‘sishi “O‘zkimyosanoat” AJda – 131,8 % (133,2 mld. so‘m), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi – 198,0 % (107,7 mld. so‘m) va “O‘zbekneftgaz” AJ da – 2,1 barobar (65,9 mld. so‘m) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatida – 37,0 % ga (- 809,5 mld. so‘m) kamaygan.


2023- yil 1- dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumi hajmi 21 480,6 mld. so‘mni, undan muddati o‘tgani 256,2 mld. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,2 %ini tashkil etdi.

Jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 132,4 %ni tashkil qildi, muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2022- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 43,3 % ga kamaygan.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2023- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 5 798,0 mld. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 27,0 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 81,8 mld. so‘mni yoki mos ravishda 31,9 %ni tashkil qildi

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik hajmi 68,5 mld so‘mga ko‘paydi, shu jumladan “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyatida – 68,5 mld so‘mga ko‘payib, viloyat bo‘yicha jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 26,7 %ini tashkil etdi.

**2023- yil 1- dekabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi
(jamiga nisbatan %da)**



2023- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

| | Jami, mlrd. so'm | undan: | | | | Muddati o'tgan qarzdorlik- ning ulushi, %da |
|--|------------------------|---|----------------------------------|---|--------------------|---|
| | | yetkazib beruvchi lar va pudrat- chilarga | Byud- jetga to'lov- lar | davlat maqsadli fondlariga to'lovlar | ichki idora-viy | |
| Jami | 256,2 | 154,4 | 9,4 | 7,3 | 2,7 | 100,0 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 49,6 | 29,5 | 8,6 | - | 2,6 | 19,4 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash | 203,5 | 124,3 | 0,8 | 7,3 | - | 79,4 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 1,4 | - | - | - | - | 0,5 |
| Tashish va saqlash | 0,2 | - | - | - | - | 0,1 |
| Boshqalar | 1,5 | 0,6 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | 0,6 |

**Korxona va tashkilotlarning
moliyaviy natijalari**

**Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning
debitorlikka nisbatan o‘sishi**

| | <i>Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi</i> | |
|--|--|-----------------------------------|
| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>debitorga nisbatan %da</i> |
| “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati | 191,3 | 134,7 |
| “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati | 347,8 | 173,1 |

Jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati – 191,3 mlrd. so‘m (134,7 %), “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati 347,8 mlrd. so‘m (173,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bunday holatlar korxonalarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik miqdori Qibray tumani – 5 067,1 mlrd. so‘m (23,6 %), Chirchiq shahar – 3 538,9 mlrd. so‘m (16,5 %) va Olmaliq shahar – 3 040,7 mlrd. so‘m (14,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning nisbatan past ko‘rsatkichlarini Bekobod tumanida – 1,4 mlrd. so‘m (0,07 %), Yangiyo‘l shahrida – 30,3 mlrd. so‘m (0,1 %) va Quyi Chirchiq tumanida – 47,9 mlrd. so‘m (0,2 %) ko‘rish mumkin.